

JADID ADABIYOTI YORQIN NAMOYONDALARINING NODIR ASARLARIDA XALQ QOLOQLIGI MUAMMOSI

Sadullayeva Maftunabonu Zavkiddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Musiqqa ta'limi yo'nalishi talabasi

Anotatsiya: *Mazkur maqolada XIX-XX asrning dolzarb muammolari, jaded adabiyoti vakillarining ushbu muammolarni bartaraf etish uchun qilgan harakatlari, harakatlar mahsuli hamda natijalari tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, xalq, qatag'on, jadidchilik harakati, jaded adabiyoti, ma'rifat, ozodlik.*

XX asr boshlarida Turkistonda kechgan voqealar sabab mahalliy xalq hayoti uchun xos bo'lgan ikki muhim jihatni alohida ko'rsatish lozim:

- birinchisi – Rossiya mustamlaka siyosati asosiga qurilgan bosqinchilik, adolatsizlik, tengsizlik zulmining kuchayishi tufayli paydo bo'lgan parokandalik;

- ikkinchisi – xalq orasidan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdurauf Fitrat kabi ma'rifatparvarlarning yetishib chiqishi hamda zulm va g'aflatdagi xalqning ular yaratgan asarlar ta'sirida uyg'onishi, millat tafakkurining yangi bosqichda shakllanishi.

Turkistondagi jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida iqtisodiy, siyosiy va ma'rifiy tanazzulga javoban ijtimoiy-siyosiy harakat sifatida vujudga kelgan edi. 1917-yil fevral inqilobigacha bo'lgan davrda ma'rifiy maqsadlar bilan boshlangan harakat asta-sekin o'z rejalarini kengaytirib, mustaqil o'zbek davlatini barpo etishni maqsad qildi. “Yangi g'oyalar”, “yangi odam” va “yangi avlod” tushunchalarini o'z ichiga olgan jadidchilik harakati va jadid adabiyoti namoyandalari Turkiston jamiyati hayotini erkinlik g'oyalari asosida isloh qilishni eng muhim burchlaridan biri deb hisobladilar.

Jadid adabiyoti nomi bilan tarixda qolgan, mavzu mundariyasi, g'oyaviy-badiiy mazmuni, badiiy-estetik jihatdan yuksak asarlar XX asr milliy so'z san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Bu davr adabiyoti xalqni ma'rifatli qilish, tengsizlik va adolatsizlik hukmron tuzumdan xalos bo'lib, mustaqillikni qo'lga kiritish, o'zligini qadim turkiy xalqlar taqdiridan ajratmagan holda anglash kabi buyuk g'oyalar asosiga qurilgan edi.

Jadid adabiyoti mavzu-mundarijasida dastlab ma'rifat g'oyalari yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik bu mavzular o'rnini mustamlakachilikka qarshi kurash, ozodlik g'oyalari egalladi. Masalan, Mahmudxo'ja Behbudiyning “Padarkush” dramasi, Abdurauf Fitratning “Munozara”, “Hind sayyohi”, Abdulla Qodiriyning “Baxtsiz kuyov”, Cho'lponning “Do'xtir Muhammadiyor” kabi qator asarlarda o'lkadagi savodsizlik, ma'rifatga loqaydlikning mudhish oqibatlari haqida so'z borsa, “Hind ixtilolchilari”,

“O‘tkan kunlar”, “Kecha va kunduz” kabi asarlarida erk va ozodlik g‘oyalari anchayin keskin va oshkora tarzda badiiy talqin etilganini ko‘rish mumkin.

“Bizlarni xonavayron, bachagiryon va bevatan va bandi qilgan tarbiyasizlik va jaholatdur: bevatanlik, darbadarlik, asorat, faqr-u zarurat va xorliklar hammasi ilmsizlik va betarbiyalikning mevasi va natijasidir. Dunyoga taraqqiy qilgan xalq ilm vositasi ila taraqqiy qiladi. Asir va zabun bo‘lganlar-da beilmlikdan. Modomiki, bizlar tarbiyasiz va bolalarimizni o‘qutmaymiz, bul tariqa yomon hodisalar va badbaxliklar oramizda doimo hukmfarmo bo‘lsa kerak. Bu ishlarni yo‘q bo‘lmog‘iga o‘qumoq va o‘qutmoqdan boshqa iloj yo‘qdur”.

Mahmudxo‘ja Behbudiy,
“Padarkush” dramasi dan

Jadidlar o‘zbek adabiyotiga yangi poetik shakllarni, yangi adabiy janrlarni ham olib kirdilar. O‘zbek adabiyotida o‘sha paytgacha mavjud bo‘lmagan hikoya, drama, roman janrining dastlabki namunalari ham jadidlar tomonidan yaratildi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon kabi jadid adabiyoti namoyandalari zamonasidagi voqealarga munosabatlarini, siyosiy va ijtimoiy mustaqillikni qo‘lga kiritish uchun olib borilayotgan islohotlarni o‘z asarlarida ochiqdan ochiq aks ettira olmas edilar. Chunki ularning asarlari o‘sha davrning hukmron mafkurasiga xizmat qilgan tanqidchilar tomonidan muntazam va jiddiy nazorat qilinar edi. Jadidlar uchun ramziy obrazlar orqali ham ijtimoiy maqsadlarni amalga oshirish oson kechmagan. Shu bois ular istiqlol haqidagi g‘oyalarini imkon qadar asarning mazmuniga, mavzu-mundarijasiga ehtiyotkorlik bilan singdirishga harakat qilganlar. Masalan, Fitratning “Mirrix yulduziga” she‘rini ozodlikni ramziy obrazlar vositasida tarannum etuvchi asarlarning go‘zal namunasi sifatida baholash mumkin:

Go‘zal yulduz, Yerimizning eng qadrlig‘ tug‘g‘ani,
Nega bizdan qochib muncha uzoqlarg‘a tushibsang?

Toshkentda 1913-yili Abdulla Avloniy rahbarligida ochilgan “Turon” teatri a‘zolari. Teatr o‘z faoliyatini Mahmudxo‘ja Behbudiy dramasi asosidagi “Padarkush” spektakli bilan boshlagan

?

Bizning yerda bo‘lib turg‘an tubanliklar, xo‘rliklar,
So‘yla, yulduz, sening dag‘i quchog‘ingda bo‘lurmi?
(Fitrat, “Mirrix yulduziga” she‘ridan)

XX asrning 1910–1930-yillarida jadidlar, millat fi doylari sho‘rolar imperiyasining mutelikni shakllantirish siyosatiga qarshi chiqib, ham badiiy, ham g‘oyaviy jihatdan mukammal asarlar yaratdilar. Mahalliy xalqning asriy orzulari hamda jamiyat mafkuraviy-siyosiy talablari o‘rtasidagi keskin nomutanosiblik xalq ongini uyg‘otibgina qolmay, har xil ko‘lamdagi milliy ozodlik harakatlarini ham keltirib chiqardi. Ushbu milliy harakat xalqimiz o‘z taqdirini belgilashida muhim ahamiyat kasb etdi.

Jaded adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitratdir.

Davlat arbobi, shoir va olim, nosir va dramaturg, ma'rifatparvar Abdurauf Abdurahim o'g'li (adabiy taxallusi – Fitrat) 1886-yili Buxoro shah rida tug'ildi. Mir Arab madrasasida o'qib yurgan davrida Qrim, Qozon, Boku, Istanbul shaharlaridan keltirilgan gazeta va jurnallar bilan muntazam tanishib bordi va uning dunyoqarashi mazkur nashrlarda targ'ibetilgan jadidchilik qarashlari ta'sirida shakllandi.

Adib XX asr boshlarida turli mamlakatlarga sayohat qildi. Manbalarga ko'ra, u 1909–1913-yillarda Istanbul universitetida tahsil oldi, u yerda yurtdosh va maslakdosh talabalar bilan birgalikda “Buxoro ta'limi” jamiyatini tashkil qildi. Buxoroga qaytgach, shoir maktabda o'qituvchilik qildi, “Yosh buxoroliklar” milliy-demokratik harakatida, “Chig'atoy gurungi” adabiy ma'rifi y tashkilotida faol ishtirok etdi, “Tong” jurnalini chop qilishni boshladi. Buxoro amirligida siyosiy tuzum, maorif, adliya sohalarini isloh qilish rejalarini tuzishda ishtirok etdi.

Buxoroda amirlik ag'darilgandan keyin u Buxoro Xalq Sovet Respublikasining bir qancha vazirliklarida rahbar lavozimlarda xizmat qildi, Buxoro yoshlarini Germaniyaning oliy ta'lim muassasalariga o'qishga yuborish jarayonlarida faol ishtirok etdi. 1923-yildankeyin Leningrad (hozirgi Sankt- 231 Peterburg), Moskva, Toshkent va Samarqand oliy ta'lim muassasalarida ishladi, o'zbek ziyolilaridan birinchi bo'lib professor unvonini oldi. 1937-yilda Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat “xalq dushmani” sifatida qamoqqa olinib, 1938-yilda Toshkentda qatl qilindi. 1960-yillarda unga qo'yilgan ayblar asossiz ekani isbotlanib, o'limidan so'ng nomi oqlandi.

Cho'lpon (asl ism-sharifi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov; 1897-yil, Andijon — 1938.4.10, Toshkent) — shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi. Dastlab, madrasada (1908-1912), so'ngra rus-tuzem maktabida (1912-1914) o'qigan. Sharq mumtoz shoirlari asarlarini mutolaa qilish va jadid matbuotini kuzatish yo'li bilan adabiy, ijtimoiy-siyosiy bilimni oshirgan.

1914-yil Toshkentga kelib, „Sadoi Turkiston“ gazetasi bilan hamkorlik qilgan. „Yangi Sharq“, „Ishtirokiyun“ (1920-yildan „Qizil bayroq“, 1922-yildan „Turkiston“) gazetasida adabiy xodim (1919-1923), Xalq maorif komissarligi qoshidagi Ilmiy kengash (1921-yildan O'lka o'zbek bilim hay'ati, 1922-yildan Ilmiy hay'at)da rais (1920-1923), „Buxoro axboroti“ gazetasida muharrir (1921-1922), „Turon“ teatrida direktor (1921; 1922-1923), „Mushtum“ jurnali va „Darxon“ gazetasida texnik muharrir, adabiy xodim (1922-1923), O'zbek drama studiyasi (Moskva, 1924-1927) va O'zbek davlat drama teatrida adabiy emakdosh (1927-1931), SSSR XKS va Sharq xalqlari markaziy nashriyotida tarjimon (Moskva, 1931-1934), „Mushtum“ va „Guliston“ jurnallari hamda „Teatru“ gazetasida adabiy xodim (jamoatchilik asosida, 1935-1937). 1938-yilda 4-oktabrda Boysuz bo'yida qatl qilinadi.

Adabiy ijodi 1913-1914-yillarda Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida xabarlar yozish bilan boshlangan. 1914-yil Toshkentda Munavvar Qori

Abdurashidxonov va Ubaydulla Xo'jayev bilan tanishish Cho'lponning milliy uyg'onish harakati namoyandasi sifatida shakllanishida muhim omil bo'lgan. Cho'lpon „Sadoi Turkiston“ gazetasida dastlabki „Turkistonli qardoshlarimizga“ she'ri, „Qurboni jaholat“, „Do'xtir Muhammadyor“ hikoyalari va „Adabiyot nadir?“ maqolasini e'lon qilib (1914), shu davr adabiyoti namoyandalari safidan o'rin egallagan. Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko'rgan Cho'lpon boshqa jadidlar qatori, o'z asarlari bilan xalqning madaniy va ma'rifiy saviyasini ko'tarishga kirishgan.

Muxtoriyat tugatilgach, Cho'lpon „Ilmiy kengash“, „Chig'atoy gurungi“, „Nashri maorif“ tashkilotlari va "Turon" teatrida adabiy, ilmiy-ma'rifiy ishlar bilan mashg'ul bo'ldi. Ayni paytda sho'ro davlatining mustamlakachilik siyosati oqibatlarini fosh etuvchi she'r va maqolalar yozish bilan istiqlol uchun kurashda davom etdi. Ammo respublika madaniyat xodimlarining 2-qurultoyi 1927-yildan keyin Cho'lponga qarshi boshlangan kurash uni siyosiy faoliyatdan uzoqlashishga, hatto 1931-1935-yillarda Moskvaga qochib borib, musofirlikda yashashga majbur etdi.

Jadidlarga qarshi boshlangan kampaniya Cho'lponni ham chetlab o'tmaydi. Ta'qib va tazyiqlarga qaramay, u qizg'in ijodiy faoliyat bilan shug'ullanadi. 30-yillarning boshida yana Moskvaga ketgan va SSSR Markaziy Ijroiya Komitetida tarjimon bo'lib ishlagan. Cho'lpon 1937-yil 14-iyulda qamoqqa olinadi va 1938-yil 4-oktabrda Toshkentda Bo'zsuv bo'yida qatl etiladi.

Cho'lponning adabiy merosi she'riyat, nasr, dramaturgiya, publitsistik va adabiy tanqidiy maqolalar hamda tarjimadan iborat.

Cho'lponning she'riy asarlari „O'zbek yosh shoirlari“, „Uyg'onish“ (1922), „Buloqlar“ (1923), „Tong sirlari“ (1926) va „Soz“ (1935) to'plamlarida, shuningdek, turli gazeta va jurnallarda e'lon qilishgan. Ular g'oyaviy-tematik yo'nalishiga ko'ra 2 guruhga ajraladi: sof lirika va ijtimoiy-siyosiy lirika. Ishqiy kechinma va tabiat manzaralari tasvirlangan she'rlarida Cho'lpon jahon lirik she'riyatining mumtoz vakillari darajasiga ko'tarilgan. She'rlari lirik qahramonning boy va go'zal ruhiy olamini, tabiat manzarasini, tabiatda kechayotgan jarayonlarni katta mahorat bilan aks ettirgan. „Go'zal“, „Sezgi“, „Sirlardan“, „Men shoirmi?“ singari she'rlari bilan barmoq vazniga asoslangan yangi o'zbek she'riyatini yuksak taraqqiyot bosqichiga olib chiqdi. Barmoq vazni Cho'lpon va Fitratning ijodiy izlanishlari bilan 20-yillarning boshlaridayoq yangi o'zbek she'riyatining asosiy vazniga aylandi.

Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho'lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko'ra shu davrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etdi. Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir davrning shu talabi bilan bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'ravonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etishga qaratilgan she'rlar yozdi („Buzilgan o'lkaga“, „Xalq“, „Vijdon erki“, „Kishan“ va boshqalar). Cho'lpon bu she'rlari bilan

adabiyotning kurash quroliga aylanishi mumkinligini isbotlab berdi. Shoirning yurak qoni bilan yozilgan bu she'rlari vatandoshlarida o'zbek diyoriga otashin muhabbat, mustamlakachilarga nafrat, erk va hurriyat g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini tarbiyaladi. Agar Cho'lponning „ko'ngil lirikasi“ an'analari keyinchalik Oybek, Hamid Olimjon, Mirtemir, Zulfiya, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Rauf Parfi va boshqalar ijodida muvaffaqiyat bilan rivojlantirilgan bo'lsa, uning ijtimoiy mazmun bilan yo'g'rilgan she'riyati an'analari keyinchalik davom ettirilmay qoldi.

Cho'lpon nasriy ijodining muhim qismini publitsistika tashkil etadi. U „Yo'l esdaligi“, „Vayronalar orasidan“ kabi qator ocherk va publitsistik maqolalarida 20-yillardagi mustamlaka o'lka hayotining mudhish manzaralarini tasvirlagan. Cho'lpon bu asarlarida realistik tasvir san'atini mukammal egallagan yozuvchi sifatida gavdalanadi. Cho'lpon yozuvchilik mahoratining shunday qirralari „Kecha va kunduz“ romanida, ayniqsa, yorqinroq aks etgan. Cho'lpon Abdulla Qodiriy bilan birga o'zbek adabiyotida realistik roman va hikoya janrlarining taraqqiyot tamoyillarini belgilab berdi.

Jadid adabiyoti hozirgacha juda manfaatli bo'lib, ta'lim tizimidan mustahkam joy olib kelmoqda. Jadidchilik namoyondalarining o'chmas asarlari zamonaviy adabiyot darsliklarida aks ettirilgani bejiz emasdir. Ushbu davrning qonli xotiralari, xalq uchun jonini berguvchi adiblarning ayanchli taqdiri hamda yakuni hech bir kitobxonni befarq qoldirmasligi aniq. Ushbu davr adabiyotiga qo'l urgan inson borki, XIX-XX asrning dahshatli olamiga tushib qolgandek bo'ladi. Mazkur yillarning holati, xalqning ahvoli va qismati yorqin yoritilgan ushbu asarlar o'tmishimizning, bugunimizning hamda kelajagimizning noyob xazinasidir.